

20-May, 2025-yil

**BOSHLANG’ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA TA’LIM
VOSITALARI ORQALI O’QUVCHILAR BILIM VA SHAXSIY SIFATLARINI
OSHIRISH**

Abdiyeva Zilola

Osiyo xalqro universiteti o’qituvchisi

Bozorova Sabrina

Osiyo xalqaro universiteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada boshlang’ich sinf o’quvchilarining fanga qiziqishi, bilim va shaxsiy sifatlarini oshirishda foydalanish mumkin bo’lgan ta’lim vositalari to’g’risida fikr yuritilgan.

Kalit so’zlar: «Rasmlarni to‘g’ri joylashtir» metodi, “Koptok uloqtirish” o’yini, “Sehrli gul” o’yini, “Qadamba-qadam” o’yini, “Beshinchisi ortiqcha” topshirig’I, “Hayo’q” didaktik o’yini, «Rasmlarni to‘g’ri joylashtir» metodi, «Qizil va yashil rangli kartochkalar bilan ishlash» metodi, “Zinama-zina” o’yini

Аннотация: В статье рассматриваются образовательные инструменты, которые можно использовать для повышения интереса учащихся младших классов к науке, знаниям и личностным качествам.

Ключевые слова: метод «Разместите картинки правильно», игра «Брось мяч», игра «Волшебный цветок», задача «Пятый плюс», «Да-Нет», «дидактическая игра», «Разместите картинки правильно "метод", "Работа с красными и зелеными карточками" метод, "Пошаговая" игра

Abstract: The article discusses the educational tools that can be used to increase the interest of primary school students in science, knowledge and personal qualities.

Keywords: "Place the pictures correctly" method, "Throw the ball" game, "Magic flower" game, " "Fifth plus" task "Yes- No "didactic game", "Place the pictures correctly" method, "Working with red and green cards" method, "Step by step" game

KIRISH

Hozirgi kunda ta’lim jarayonini sifatli tashkil qilish, o’quvchilar qiziqishi, bilim va shaxsiy sifatlarini oshirish dolzarb masalalardan biridir. Ta’limni muvaffaqiyatli amalgalashish ko’p jihatdan ta’lim vositalari va metodlarini to’g’ri tanlash va ulardan samarali foydalanishga bog’liqdir.

Dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta’lim tizimini yo’lga qo‘yish, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini zamон talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o‘quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish, o‘quvchilarning fanlar bo‘yicha egallagan bilimlari bilan bir qatorda, savodxonlik, kompetensiya hamda shaxsiy sifatlarini baholashning yangi tizimini

20-May, 2025-yil

joriy etish, o‘qituvchilarga o‘quvchilar bilimini formativ baholashga o‘rgatishning innovatsion yo‘llarini o‘rgatish orqali ta’lim sifatini oshirish, o‘qituvchining kasbiy faoliyatida metodik tayyorgarlikni kuchaytirish² jamiyat talablarining asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Bu talablarni to’liq bajarishga ta’lim vositalari keng ko’lamda xizmat qiladi. Ta’lim vositalari ta’lim metodlariga, sinf jamoasining individual va umumiy salohiyatiga, soniga va o‘quv predmetiga qarab tanlanadi.

Boshlang’ich sinf matematika darslarida ijodiy topshiriqlar, kompyuter texnologiyalari(multimediya vositalari, animatsion, harakatli taqdimotlar, matematik o‘yinlar, fanga doir turli dasturlar), ko’rsatmali qurollar, harakatli ko’rgazmalardan foydalanish- o‘quvchilarda shu fanni o’zlashtirishga nisbatan motivatsiya hosil qilishga, ularning qiziqishi, ichki imkoniyatlarini jonlantirishga, o‘quv predmetidagi tushunchalar to’g’risida aniq tasavvurlarni hosil qilish va shakllantirishga, bilim va shaxsiy sifatlarini oshirishga olib keladi.

ASOSIY QISM

Bunday natijaga erishish uchun quyida o‘qituvchi-pedagoglarimizga kichik tavsiyalarimizni berib o’tmoqchimiz:

«Qizil va yashil rangli kartochkalar bilan ishlash» metodi

Tahsil oluvchilar bilan ommaviy va guruh shaklida ishlashda ushbu metodni qo‘llash nihoyatda qulay. Metoddan mashg‘ulotlar so‘ngida mavzuni mustahkamlashga oid tezkor savol-javobni tashkil etishda foydalanish mumkin. Metod quyidagi harakatlarni tashkil etish asosida qo‘llaniladi:

- o‘qituvchi tomonidan sinf tahsil oluvchilarining soniga ko‘ra har bir tahsil oluvchi uchun qizil va yashil rangli kartochkalar hamda mavzuga oid savolnomada tayyorlanadi;
- savolnomadan «ha» yoki «yo‘q» tarzida javob berish mumkin bo‘lgan savollarning o‘rin olishiga ahamiyat qaratiladi;
- har bir tahsil oluvchiga qizil va yashil kartochkalar tarqatiladi;
- tahsil oluvchilarga qizil rangli kartochkalarning «tasdiq», yashil rangli kartochkalarning «inkor» ma’nosini anglatishi uqtirib o‘tiladi;
- tahsil oluvchilar o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga «tasdiq» yoki «inkor» ma’nolarini anglatuvchi kartochkalarni ko‘rsatish asosida javob qaytaradilar.

“Koptok uloqtirish” o‘yini

Maqsad: Bu o‘yin o’tilgan mavzularni sifatli o‘rganish, o‘quvchining o’z ustida ishlashi uchun unda motivatsiya hosil qiladi. O‘yindan o‘rganilgan tushunchalarni takrorlash, mustahkamlash maqsadida foydalanish mumkin. O‘quvchida tez fikrash, hozirjavoblik qobiliyatlarini shakllantiradi.

Jarayon: Bunda o‘qituvchi savolni e’lon qilish barobarida koptokni uloqtiradi. Koptokni ilib olgan o‘quvchi o‘qituvchiga qaytib uloqtirish barobarida savolning javobini ham aytishi shart. Agar savolga javob berolmasa o‘yindan chiqadi. O‘yin shu tarzda davom etadi.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalaini takomillashtirish chora tadbirlari to’g’risida”gi Farmoni

20-May, 2025-yil

Koptokni olgan o'quvchi tezkorlik bilan savolga javob berishi kerak bo'ladi. Bu o'yindan deyarli barcha o'quv predmetlarini o'tish jarayonida foydalanish mumkin.

Matematika darslarida arifmetik amallarga doir bilimlarni mustahkamlashda shu o'yindan foydalanish yaxshi samara beradi.

Bu jarayonda 4-sinf o'quvchilariga quyidagicha savollar berish mumkin.

1. 1 kg paxta og'irmi, 1 kg tosh?
2. 1sentner necha kg?
3. 1dm kv necha sm kv?
4. 1m ning 5 dan 1 qismi necha sm?
5. 1 ta uchi bor bo'lган fazoviy shakl nomini ayting.
6. Birorta ham uchi bo'lмаган fazoviy shakl nomi nima?
7. 1dm necha mm?

“Sehrli gul” o'yini

Maqsad: O'quvchilarning nazariy va amaliy bilimlarini sinovdan o'tkazish. Matematik nutqni shakllantirish va rivojlanterish.

Jarayon: Bunda o'qituvchi qo'lidagi gulni kimga bersa o'sha o'quvchi savolga javob berishi kerak bo'ladi. Savolga javob berolmagan o'quvchi tik turadi. Sinf jamoasi guruhlarga bo'linadi. Bo'lingan kichik guruhlardan qaysi birida tikka turgan o'quvchi eng ko'p bo'lsa o'sha guruh eng oxirgi o'rinda bo'ladi.

Matematika darslarida o'quvchilarning arifmetik hisoblashga, matematik tushunchalarga oid bilimlarini aniqlash, fazoviy tasavvur va matematik nutqlarini shakllantirish maqsadida ushbu o'yindan foydalanish mumkin.

Bu jarayonda 1-sinf o'quvchilarga quyidagi savollarni berish mumkin.

1. 1 dan katta 5 dan kichik sonlarni aytib bering.
2. 2 va 4 ning orasida qaysi son bor?
3. 1 dan 10 gacha bo'lган sonlarni o'sish tartibida ayting.
4. 10 dan 1 gacha sonlarni kamayish tartibida sanang.³

“Beshinchisi ortiqcha” topshirig'i

Maqsad: O'quvchilarning bilimini aniqlash va mustahkamlash, ularda mantiqiy fikrlash, zukkolik, sinchkovlik sifatlarini shakllantirish hamda o'ziga ishonchni o'stirish.

Jarayon: O'rganilgan mavzuga doir tushuncha hamda shu tushunchaning bir nechta izohi yoziladi. Shu izohlar orasiga o'quvchiga tanish boshqa bir tushunchaga doir izoh ham yoziladi. Mana shu izoh esa berilgan tushuncha uchun ortiqcha hisoblanadi. O'quvchidan berilgan tushunchaga tegishli bo'lмаган “ortiqcha” izohni tanlash talab etiladi.

1-sinf o'quvchilariga quyidagi testni havola qilishimiz mumkin.

Tushuncha nomi	Izohlar
	2

³ Z.Abdiyeva. Bilmasvoy bilimdonlar mamlakatida (Matn): Bolalar uchun ertak-masalalar /.-Buxoro : Sadriddin Salim Buxoriy Durdoni nashriyoti, 2018. – 84 b.

20-May, 2025-yil

Juft son	4
	6
	7
	8

Tushuncha nomi	Izohlar
Fazoviy shakl	Konus
	Piramida
	Silindr
	Kub
	To'rtburchak

Bunday topshiriqni “qaysi biri ortiqcha” savoli ostida umumiy tarzda ham, individual tarzda ham o’quvchilarga havola qilish mumkin.

“Ha-yo’q” didaktik o’yini

Maqsad: O’quvchilar diqqatini jamlash. Axborotni qabul qilish, anglash qobiliyatini yaxshilash. Hozirjavoblikka o’rgatish.

Jarayon: O’qituvchi tomonidan o’rganilgan mavzularga doir fikr bildiriladi. Agar o’sha fikr to’g’ri bo’lsa o’quvchilar “Ha”- deb, noto’g’ri bo’lsa “yo’q” deb javob berishlari kerak bo’ladi. Masalan, 1-sinf matematika darsida quyidagi fikrlarni aytish mumkin.

- 2-juft son –“Ha”
- 3-toq son- “Yo’q”
- Uchta tomoni bor shakl-to’rtburchak deyiladi-“Yo’q”
- To’rtta tomoni, to’rtta burchagi bor shakl to’rtburchak deyiladi-“Ha”
- Uchburchak-fazoviy shakl- “Yo’q”
- Piramida – yassi shakl- “Yo’q”

Avvaliga o’quvchilar biroz chalg’ishlari, kerakli izohni topishda qiynalishlari mumkin. Bunday testlar bir necha marta berilgandan so’ng o’quvchida malaka hosil bo’ladi.

O’yin shu tarzda davom etadi.

«Rasmlarni to‘g’ri joylashtir» metodi

Kichik guruhlarda ishlashda ushbu metoddan foydalanish ham ijobjiy natijalarini kafolatlaydi. Metodni qo’llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- o’qituvchi tomonidan o’rganilayotgan mavzuning mohiyatini mantiqiy ketma-ketlikda yoritishga xizmat qiluvchi tushunchalarni ifoda etgan maxsus kartochkalar majmui tayyorlanadi (har bir kartochkaning orqa tomoniga mavzu mohiyatini yorituvchi «yadro» tushunchaning bittadan harfi joylashtiriladi va maxsus qoplama bilan berkitiladi);
- har bir guruhga maxsus kartochkalarning alohida majmusi topshiriladi va kartochkalarni ulardagi tushunchalarga asosan mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish vazifasi yuklanadi;
- guruqlar tomonidan topshiriq bajarilib bo’lingach, kartochkalarning orqa tomoni o’giriladi va maxsus qoplama ochilib, topshiriqning qay darajada to‘g’ri bajarilganligi aniqlanadi.

20-May, 2025-yil

Agar topshiriq guruhlar tomonidan to‘g‘ri bajarilgan bo‘lsa, yakuniy jarayonda kartochkalar orqa tomonga o‘girilganda mavzuning mohiyatini yorituvchi «yadro» tushuncha hosil bo‘ladi.

Metoddan foydalanishning afzalligi shundaki, bu jarayonda tahsil oluvchilarda mavzuni muayyan qismlarga bo‘lib o‘rganish va qismlar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlik hamda aloqadorlikni analiz va sintez asosida aniqlash ko‘nikmalari hosil qilinadi.

«Qizil va yashil rangli kartochkalar bilan ishlash» metodi

Tahsil oluvchilar bilan ommaviy va guruh shaklida ishlashda ushbu metodni qo‘llash nihoyatda qulay. Metoddan mashg‘ulotlar so‘ngida mavzuni mustahkamlashga oid tezkor savol-javobni tashkil etishda foydalanish mumkin. Metod quyidagi harakatlarni tashkil etish asosida qo‘llaniladi:

- o‘qituvchi tomonidan sinf tahsil oluvchilarining soniga ko‘ra har bir tahsil oluvchi uchun qizil va yashil rangli kartochkalar hamda mavzuga oid savolnomada tayyorlanadi;
- savolnomadan «ha» yoki «yo‘q» tarzida javob berish mumkin bo‘lgan savollarning o‘rin olishiga ahamiyat qaratiladi;
- har bir tahsil oluvchiga qizil va yashil kartochkalar tarqatiladi;
- tahsil oluvchilarga qizil rangli kartochkalarning «tasdiq», yashil rangli kartochkalarning «inkor» ma’nosini anglatishi uqtirib o‘tiladi;
- tahsil oluvchilar o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga «tasdiq» yoki «inkor» ma’nolarini anglatuvchi kartochkalarni ko‘rsatish asosida javob qaytaradilar.

XULOSA

Umuman olganda, ta’lim vositalardan foydalanishdan asosiy maqsad, o‘quvchilarning o‘quv predmetiga nisbatan qiziqishini, bilim va shaxsiy sifatlarini oshirishdan iboratdir. Shunday ekan, bunday vositalardan foydalanish jarayonida o‘quvchilarning umumiyl salohiyatini hisobga olgan holda, taqdim etiladigan savollarni to‘g‘ri tanlash- natijaga olib boruvchi eng yaxshi yo‘ldir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalaini takomillashtirish chora tadbirdari to‘g‘risida”gi Farmoni
2. M. Ahmedov , N. Abdurahmonova, M. Jumayev . Umumiyl o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik «Turon-iqbol» Toshkent – 2019
3. N. Abdurahmonova, I. O‘rinboyeva . Umumiyl o‘rta ta’lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik TOSHKENT «Yangiyo‘l Poligraf Servis» 2018
4. Burxonov S., Xudoyorov O‘., Norqulova Q. Matematika. – 3sinf uchun darslik. – T.: Sharq; 2019. – 208 b.
5. Bikbayeva N.U. Matematika. – 4-sinf uchun darslik. – T.: O‘qituvchi, NMU; 2020. – 208 b.
6. Z.Abdiyeva. Bilmasvoy bilimdonlar mamlakatida (Matn): Bolalar uchun ertak-masalalar /.-Buxoro : Sadriddin Salim Buxoriy Durdon nashriyoti, 2018. – 84 b.